



## Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

### Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik


2022- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar


# Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik



Yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi **54,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,2** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrda **3113** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **93,3** foizni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Savdo

32,9%

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

23,1%

Sanoat

19,2%

Qurilish

5,6%

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1023 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 720 ta, sanoatda 598 ta, qurilishda 173 ta, tashish va saqlashda 128 ta, yashash va ovqatlanishda 106 ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



**2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 96,4

Sanoat 19,8

Qurilish 92,3

Investitsiya 30,7

Savdo 91,9

Xizmatlar 50,5

Eksport 17,8

Import 46,9



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**22059**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

**3113**

**2022- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**Yanvar-sentabr oyalarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da**



■ 2021- y. ■ 2022- y.

■ (+;-)

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

## Savdo

32,3 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

16,5 %



## Sanoat

15,6 %



## Qurilish

11,3 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,5 %



## Tashish va saqlash

4,4 %



## Axborot va aloqa

1,6 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,7 %




## Boshqa faoliyat turlari

10,1 %



Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

■ (+/-)

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




## Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



**2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nukus shahri – 23,4 %, To'rtko'l tumani – 9,5 %, Ellikqal'a tumani – 8,5 %, Beruniy tumani – 8,4 %, Amudaryo tumani – 8,3 %, Qo'ng'iroq tumani - 7,0 %, Xo'jayli tumani- 4,5 % hissalariga to'g'ri keldi.




# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Savdo	1 105	1 023	-82
Sanoat	632	598	-34
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	761	724	-37
Qurilish	214	173	-41
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	169	106	-63
Tashish va saqlash	97	129	+32
Axborot va aloqa	72	58	-14
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar...	39	43	+4
Boshqa turlar	244	388	+144

■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2021- y. yanvar-sentabr

■ 2022- y. yanvar-sentabr

Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda  
1023 ta

Qishloq,  
o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligida  
720 ta

Sanoatda  
598 ta

Qurilishda  
173 ta


# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022-yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 11,2 birlikni tashkil etdi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\***



**2022-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***

2022-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus sh. 19,1 birlik, Nukus tumanida 17,9 birlik, Mo'ynoq tumanida 17,5 birlik, Bo'zatov tumanida 14,8 birlik, Qorao'zak tumanida 10,9 birlik, To'rtko'l tumanida 10,4 birlik, birlikni tashkil etgan.



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus sh. 19,1 birlik, Nukus tumanida 17,9 birlik, Mo'ynoq tumanida 17,5 birlik, Bo'zatov tumanida 14,8 birlik, Qorao'zak tumanida 10,9 birlik, To'rtko'l tumanida 10,4 birlikni tashkil etgan.


**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),  
2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra\***

**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Nukus sh.  
- 19,1 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Xo'jayli tumanida  
- 9,2 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Chimboy tumani  
- 7,6 birlik.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da**



**2022- yilning yanvar-sentabrdagi kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 54,3**

**% ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-sentabrdagi 55,5 % ).**


\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 48,9 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 17,8 % ni tashkil etdi.



### 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




### Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi



2021- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Mo'ynoq, Nukus tumani, Taxtako'pir Xo'jayli va Shumanay – 100,0 % ni, Qo'ng'iroq tumanida – 79,5 %, To'rtko'l tumanida – 45,9 %, Ellikqal'a tumanida – 35,7 %, Taxiatosh tumanida – 41,1 %, Qonliko'l tumanida – 21,2 %, va Amudaryo tumanida – 25,4 % ni, eng past ko'rsatkich Nukus shahrida – 1,4 % ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Beruniy, Bo'zatov, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Shumanay tumanlarida – 100,0 %, Nukus tumani – 96,7 %, Qo'ng'iroq – 87,9 %, Amudaryo – 85,6 %, Eng past ko'rsatkich Qorao'zak tumanida – 0,7 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **80,9 million AQSH dollarini** yoki umumiy importning **46,7 %** ini tashkil etdi.




**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-sentabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2568,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (519,8 mlrd. so'm), Beruniy (373,8 mlrd. so'm), Amudaryo (220,4 mlrd. so'm), To'rtko'l (186,7 mlrd. so'm), Qorao'zak (164,1 mlrd. so'm), va Shumanay (157,3 mlrd. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'zatov tumanida (19,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy


hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **19,8 %** ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-sentabr holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini, Shumanay va Bo'zatov tumani (100,0 %), Beruniy (95,8 %), Xo'jayli tumanida (66,5 %), Mo'ynoq (63,6 %), Qoro'zak (59,8 %), Chimboy (52,8 %), Amudaryo (51,1 %), Ellikqal'a (45,1 %), va To'rtko'l (38,7 %) tumanlari tashkil etdi. Nukus shahrida (7,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6627,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,6 %** ni tashkil qildi.

### 2022- yilning yanvar-sentabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (1734,9 mlrd. so'm), To'rtko'l (699,5 mlrd. so'm), Xo'jayli (578,7 mlrd. so'm), Beruniy (572,4 mlrd. so'm), Amudaryo (521,7 mlrd. so'm), va Qo'ngiroq (486,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (1164,6 mlrd. so'm), To'rtko'l (387,6 mlrd. so'm), Ellikqal'a (252,6 mlrd. so'm), Amudaryo (224,6 mlrd. so'm), Nukus tumani (222,5 mlrd. so'm), Beruniy (217,9 mlrd. so'm) hamda Taxiatosh (194,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3567,7** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,3 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,9 %** ni tashkil qildi.




## 2022- yilning yanvar-sentabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



■ hajm, mlrd. so'm    ● o'sish sur'ati, %

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlarda ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3759,7** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiylajmining **50,5 %** ini tashkil qildi va oʼsish surʼati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **110,1 %** ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Nukus shahri (1100,0 mlrd. soʼm), Toʼrtkoʼl (430,6 mlrd. soʼm), Amudaryo (276,1 mlrd. soʼm), Beruniy (270,5 mlrd. soʼm), Ellikqalʼa (253,3 mlrd. soʼm), Xoʼjayli (246,6 mlrd. soʼm) va Qoʼngʼiroq (224,3 mlrd. soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

### 2022- yilning yanvar-sentabrida shahar va tumanlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




## 2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,6** % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,2** % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,9** % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,7** % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,1** % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,6** % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,1** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022-yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtaida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **866** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 405 (46,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 411 (47,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 50 (5,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

**2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,6 % (92 ta), sanoatda – 13,8 % (119 ta), qurilishda – 12,2 % (105 ta), savdoda – 36,0 % (311 ta), xizmatlar sohasida – 27,4 % (239 ta)ni tashkil etdi.



## Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


**2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahri (238 ta), To'rtko'l (109 ta), Amudaryo (70 ta), Beruniy (60 ta), va Ellikqal'a (59 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 52,1 % ni, savdoda – 50,2 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 43,5 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 62,9 % ni, xizmatlar sohasida – 49,4 % ni, savdoda – 45,0 % ni, tashkil etdi.

2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 56,6 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 50,0 % ni, sanoatda 50,4 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda 56,2 % nizixmatlar sohasida 46,0 % ni, savdoda 39,9 % ni, tashkil etdi.



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,4	43,9	6,7
Band bo'lganlar soni	23,8	73,3	2,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	44,9	51,3	3,8
Moliyaviy mablag'lari: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,3	69,4	4,3
Raqobat muhiti*	40,5	56,6	2,9
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	52,4	44,1	3,5
Band bo'lganlar soni	26,4	71,8	1,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	43,8	53,2	3,2
Moliyaviy mablag'lari: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,7	67,2	3,0
Raqobat muhiti*	41,0	56,1	2,9

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



**2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da**



**2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da**

